



TOSHKENT
FARMATSEVTIKA
INSTITUTI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTINING
85 YILLIGIGA BAG'ISHLANGAN
“FARMATSEVTIKA SOHASINING BUGUNGI HOLATI:
MUAMMOLAR VA ISTIQBOLLAR”
MAVZUSIDAGI III XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI

МАТЕРИАЛЫ III МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ,
ПОСВЯЩЕННОЙ 85-ЛЕТИЮ
ТАШКЕНТСКОГО ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОГО ИНСТИТУТА
«СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ
ОТРАСЛИ: ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ»

ABSTRACT BOOK OF THE 3RD INTERNATIONAL
SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE
DEDICATED TO THE 85TH ANNIVERSARY OF THE
TASHKENT PHARMACEUTICAL INSTITUTE
“MODERN PHARMACEUTICS:
ACTUAL PROBLEMS AND PROSPECTS”



85 YIL
TOSHFARMI
1937-2022

TOSHKENT - 2022

EKUSTIMNI GISTAMIN BILAN CHAQIRILGAN O'TKIR ASEPTIK YALLIG'LANISH KECHISHIGA TA'SIRINI O'RGANISH

Mavlanov Sh.R., Rakhmanov A.Kh., Khakimov Z.Z., Khadjieva U.A., Tursunova L.I.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

Toshkent tibbiyot akademiyasi, Toshkent sh., O'zbekiston

A.Sultonov nomidagi kimyo-farmatsevtika ilmiy tekshirish instituti, Toshkent sh., O'zbekiston

e-mail: shuhrat_rav@mail.ru

Maqsadligi: yallig'lanish immunitet tizimining patogenlar, shikastlangan hujayralar, toksik birikmalar, allergenlar, an'anaviy moddalar yoki radiasiya kabi zararli stimullarga javobi bo'lib, yallig'lanish o'chog'ida leykositlar infiltratsiyasi va yallig'lanish omillarini hosil bo'lishiga olib keladi. Shunday qilib, yallig'lanish salomatlik uchun himoya bo'lgan himoya mexanizmidir. O'simliklar o'rta asrlardan buyon an'anaviy tarzda dorilar tayyorlashda muhim o'rin tutgan va bugungi kunda ham ahamiyatli bo'lib qolmoqda. Avvalgi paytlarda o'simlik choylari, damlamalar va o'simlik preparatlari kabi tozalanmagan shakllarda qo'llanilgan dorivor o'simliklar asosidagi dorilar ko'plab an'anaviy dori vositalarini kashf qilishdagi izlanishlarning asosini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi: o'tkir aseptik yallig'lanishning gistamin bilan chaqirilgan modelida yallig'lanishga qarshi Ekustim shartli ravishda Ekustim deb nomlangan dorivor o'simliklar - dala qirqbo'g'imi o'ti, tukli erva o'ti, yantoq o'ti, yer bag'rlagan temirtikan o'ti, tubulg'ibargli bo'yumodaron o'ti, bodring urug'lari, makkajo'kori popugi, qizilmiya o'ti quruq ekstraktlari aralashmasini diklofenak natriy va artikyur bilan qiyosiy o'rganish bo'ldi.

Materiallar va uslublar: eksperimental tadqiqotlar jinsiy jihatdan yetuk boshlang'ich vazni 160-180 g bo'lgan jonivorlarda oq kalamushlar o'tkazildi. Har bir eksperimental guruh 6 ta jonivordan iborat bo'ldi. Dori vositalarining ta'sirini baholash uchun ta'siri tajriba jonivorlari panjalarining 1% gistamin eritmasi (har bir jonivor uchun 0,1 ml) ni yuborish orqali o'ng oyoq panjasiga subplantar yuborish orqali chaqirilgan o'tkir yallig'lanishli shish modelida baholandi. Aseptik yallig'lanishli shishning ushbu modeli yangi istiqbolli dori vositalarining yallig'lanishga qarshi ta'sirini baholash uchun keng qo'llaniladi.

Natijalar: gistamin bilan chaqirilgan aseptik yallig'lanish modelida vositalarning yallig'lanish jarayoni kechishiga qarshi qiyosiy o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, nazorat guruhi jonivorlarida gistamin yuborilgandan so'ng panja yuborish darajasi 1 soatdan so'ng 67,0% ga, tajribaning 2, 3 va 4-soatlarida mos ravishda 72,5%; 63,7% va 55,1% ga statistik jihatdan ishonarli kattalashdi. Ekustim vositasini 100 va 200 mg/kg doza yuborilgan panja hajmi yuborish darajasi 1 soatida mos ravishda 38,0% va 34,7%ni, 2 soatdan so'ng 35,0% va 33,7%ni, 3 soatdan so'ng 22,0% va 25,7%, shuningdek tadqiqotning 4-soatida 20,0% va 11,1% ni tashkil qildi. Ekustim 100 mg/kg dozada yuborilganda yallig'lanishga qarshi faollik (YaQF) ko'rsatkichi mos ravishda 37,2%; 47,2%; 62,5 va 59,0%ni, 200 mg/kg dozada qo'llanganda esa 41,6%; 47,9%; 57,3% va 78,5% ni tashkil qildi. Tajriba jonivorlariga Artikyur preparati yuborilganda panja hajmi dastlabki hajmga nisbatan 1 soatdan so'ng 52,8% ga, tajribaning 2, 3 va 4 soatlarida mos ravishda 41,6%; 30,3% va 19,1% ga kattalashdi. YaQF mos ravishda 22,7%; 43,6%; 53,0% va 65,2%ni tashkil etdi. Ekustim bilan aseptik yallig'lanish kechishiga etalon nosteroid yallig'lanishga qarshi vosita diklofenak natriy ta'sirini o'rganish natijalari shuni ko'rsatdiki, flogogen yuborilgandan so'ng panja hajmi tajribaning 1-soatida 45,2%ga, 2-soatida 38,9%ga, 3-soatida 26,9% va nihoyat 4-soatda 17,2% ga kattalashdi. YaQF esa o'z navbatida 30,7%; 36,8; 55,3% va 60,8% ni tashkil qildi.

Xulosa: shunday qilib, tajribalarning keyingi seriyasida gistamin bilan chaqirilgan yallig'lanish modelida Ekustim bilan yallig'lanishga qarshi samara ko'rsatdi. Ekustim qo'llanilgan ikkala dozada o'xshash samaradorlikka ega bo'ldi.

ANISSIMON LOFANT(LOPHANTHUS ANISATUS) DORIVOR O'SIMLIGINING YO'TALGA QARSHI TA'SIRINI O'RGANISH

Normurotova M.M., Sultanova R.X., Hamroyeva U.A.

Toshkent farmatsevtika instituti, Toshkent sh., O'zbekiston Respublikasi

e-mail: normurotovamahfuza@mail.ru

Maqsadligi: yo'tal nafas yo'llari kasalliklarining keng tarqalgan asosiy simptomlaridan biri hisoblanadi. Pulmonologik kasalliklarning asosiy shikoyati yo'tal hisoblanadi. Yo'tal nafas yo'lidagi patologik ajralmalarni chiqarib tashlashga olib keladigan reflektor akdir. Refleks paydo bo'lishi yo'tal refleksogen zonalarida joylashgan adashgan nerv xemoretseptorlari yoki periferik nafas yo'llaridagi xemoretseptorlari qo'zg'alishi bilan bog'liq. Yallig'lanish jarayonida refleksogen zonalar ko'payib ketadi va ortiqcha sekret va tashqi ta'sirotlar tasirida qo'zg'aladi. Yo'talga olib keladigan sabablar bo'lib yuqori va pastki nafas yo'llari infeksiyon etiologiyali yallig'lanish kasalliklari, turli allergik etiologiyali yallig'lanish kasalliklari, bronxial obstruktiv sindromli kasalliklar, psixogen yo'tal, aspiratsiya sindromi va mexanik bosilishlar, pnevmoniya hisoblanadi. Anissimon lofantning shifobaxsh xususiyatlari uchun u "shimoliy kasallik" sifatida shuhrat qozongan. Uni qo'llash doirasi xilma-xildir. Tibbiyotda undan immun tizimini mustahkamlash, stenokardiyani davolash uchun turli preparatlar tayyorlanadi. Anissimon lofant ateroskleroz, stenokardiyaning davolashda muvaffaqiyatli qo'llaniladi, u gipertenziyada qon bosimini pasaytiradi. Lofantning qaynatmalari bosh og'rig'i, yurak kasalliklari, asab tizimi kasalliklari va uyqusizlikni davolash uchun ishlatiladi. Yangi va quritilgan shakldagi lofant barglari ingalyatsiya, terapevtik vannalar uchun ishlatiladi.